

3. чекка қишлоқларда тадбиркорлик фаолиятига имтиёзлар қўллаш;  
 4. чекка қишлоқларда аҳолининг яшаш шароитларидан келиб чиқиб солиқ имтиёзларини бериш;  
 5. касбга ўқитиш ва қайта тайёрлов курсларини ташкил этиш;

6. олис қишлоқ жойларига келиб меҳнат фаолиятини амалга ошираётган ишчиларга топаётган даромадидан солиқ имтиёзларини бериш;

7. худудларнинг географик жойлашуvidан келиб чиқиб муносиб хизматларни туманлар кесимида ўзаро интеграциясини тамиш ва бошқалар.

**Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони [кириш йўли] <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Bell D. *The Winding Passage: Sociological Essays and Journeys*. – Routledge, 2019. – 399 p.
3. Galbraith J.K. *The culture of contentment*. – Princeton University Press, 2017. – 176 p.
4. Васеленко Н.В., Венгерова И.В Роль сферы услуг в развитии современной экономики. *Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований*. №2, 2012.
5. Самтаров Ш.Х. “Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш” мавзусидаги иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси – Самарақанд 2022 йил
6. Смит А. *Исследование о природе и причинах богатства народов*. М.: Эксмо, 2009. – бет.104.
7. Harrison Tina, Estelami Hooman (5 December 2014). *The Routledge Companion to Financial Services Marketing*. ISBN 9781134095629.
8. McConnell, Campbell R.; et al. *Economics. Principles, Problems and Policies* (PDF) (18th ed.). New York: McGraw-Hill. ISBN 978-0-07-337569-4. Archived from [the original](#) (PDF contains full textbook) on 6 October 2016., Glossary, p. G-25.
9. Котлер, Ф., *Маркетинг менеджмент*. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006.- 464 с.
10. *Осинов Ю.С.* — М.: Большая российская энциклопедия, *Сектор экономики*. 2004—2017.
11. *Социально-экономические проблемы развития отдельных отраслей сферы услуг: Сборник статей / Под ред. Восколович Н.А., Молчанова И.Н.* — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2017. — 199 с.
12. Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. *Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари*. Монография. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2021. 186 б.
13. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари*.
14. *Самарқанд вилояти статистика бошқармаси ва Самарқад вилояти иқтисодиёт бошқармаси маълумотлари*
15. *Самарқанд вилояти статистика бошқармаси маълумотлари*
16. *Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган [кириш йўли] <https://cbu.uz/oz/credit-organizations/banks/branches/>*
17. *Ўзбекистон Республикаси Маданий меърос агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган [кириш йўли] [https://backend.madaniymeros.uz/media/uploads/open-data/846\\_04.10.2019\\_milliy\\_royhat.pdf](https://backend.madaniymeros.uz/media/uploads/open-data/846_04.10.2019_milliy_royhat.pdf)*



**BOZORNI TARTIBGA SOLISHNING YANGI PARADIGMASI VA RAQOBAT**

**Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna**  
 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
 Korporativ boshqaruv kafedrası dots. v.b.

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss1/a18](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a18)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqobatning ko'p qirrali iqtisodiy hodisaligi va u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalashi ko'rsatilgan hamda raqobat bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurash anglatilgan. Raqobatning moslashtirish vazifasi tarmoqlarda korxonalar, firmalarning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etishi keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat unumdorligi, iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, raqobatning taqsimlash vazifasi, bozor vositasi, arzon xomashyo, erkin narx.

## НОВАЯ ПАРАДИГМА РЕГУЛИРОВАНИЯ РЫНКА И КОНКУРЕНЦИИ

Файзиева Дилафруз Шухратовна

Ташкентский государственный экономический университет  
и.о.доц. кафедры корпоративного управления

**Аннотация.** В данной статье показано, что конкуренция является многогранным экономическим явлением и представляет собой сложные отношения между всеми субъектами рынка. Также конкуренция – это конфликт экономических интересов субъектов рынка, что означает борьбу между ними за получение более высоких прибылей и большей производительности. Задача адаптации конкуренции направлена на рациональное приспособление предприятий фирм к внутренним и внешним условиям среды в сетях. Также широко разъясняется, что свобода и независимость производителей как предпринимателей и владельцев собственности составляют экономическую основу конкуренции.

**Ключевые слова:** производительность труда, экономический рост, занятость, сельскохозяйственная продукция, распределение конкуренции, рыночный инструмент, дешевое сырье, свободная цена.

## A NEW PARADIGM FOR MARKET REGULATION AND COMPETITION

Fayzieva Dilafruz Shukhratovna

Tashkent State University of Economic Departments of  
corporate governance Acting associate professor

**Abstract.** This article shows that competition is a multifaceted economic phenomenon and represents complex relationships between all market entities. Also, competition is a conflict of economic interests of market entities, which means a struggle between them to obtain higher profits and greater productivity. The task of adapting competition is aimed at rational adaptation of enterprises firms to internal and external environmental conditions in networks. It is also widely explained that the freedom and independence of producers as entrepreneurs and property owners constitute the economic basis of competition.

**Keywords:** labor productivity, economic growth, employment, agricultural products, distribution of competition, market instrument, cheap raw materials, free price.

**Kirish.** Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

XXI asr, axborot asri globallashuv jarayonlarining keskinlashuvi, o'z navbatida, IT-texnologiyalari asosidagi dasturlar doirasida ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlanmalar va g'oyalar natijasida mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tarmoq va sohalarda yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlangan ish joylarini yaratish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish. Mazkur yo'nalishning ijobiy hal etilishi, o'z navbatida, mehnat resurslari ortiq hamda yer maydoni kichik hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Mehnat unumdorligi ishsizlik muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi, aynan yuqori mahsulдорlikka ega tarmoqlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi va shu bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bundan tashqari ularning umumiy ish bilan ta'minlanishiga ta'siri, iqtisodiy o'sish natijasida olinadigan daromadlar hisobiga moliyalashtirilishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy aha-

miyatga ega bo'lgan kam mahsulot ishlab chiqarishlarni rivojlantirish bilan to'ldiriladi [1].

Rivojlangan mamlakatlarda mehnat unumdorligining o'sishidan olinadigan qo'shimcha daromadlar korxonalariga istiqbolli tarmoqlarda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan faoliyatning yangi turlarini rivojlantirish uchun mablag' ajratishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, arzon kredit olish imkoniyati nisbatan oson bo'lgan korxonalar uchun moliyaviy vositachilarning kam xarajatlari ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini beradi. Bunday holda, ayrim sanoat tarmoqlarida mahsulдорlikning o'sishi, boshqa sohalarda mehnat unumdorligini oshirish va ish o'rinlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ish bilan bandlikning kelajagi borgan sari unumdorligi past bo'lgan individual xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatga asoslangan bo'ladi. Yuqori malakani talab qilmaydigan xizmatlar (servis sohasi, kliring, keksalar, bolalar va nogironlarga g'amxo'rlik qilish) saqlanib qoladi, ammo malakali kadrlarni talab qiladigan boshqa xizmat turlarining ko'payishi tufayli ularning jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar haj-

midagi ulushi sezilarli darajada kamayadi. Shunday qilib, past mahsuldorlikka ega, ammo ish bilan ta'minlashga katta ta'sir ko'rsatadigan xizmatlarni moliyalashtirish to'g'risida savol tug'ila-

di. Qo'shimcha daromad keltiradigan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish faoliyati rivojlangan taqdirdagina ish bilan bandlik masalalarini hal qilish mumkin.



1-rasm. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari [14]

Ishlab chiqaruvchilar sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish maqsadida raqobatlashadilar. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida ular orasida tovarlarni sotish doiralarini kengaytirish, qulay bozorlar, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalariga erishish uchun kurash boradi. O'z navbatida, xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon, sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalaridagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi subyektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq tavsiflaydi. Davlat tomonidan bozorini tartibga solish amaliyotida iqtisodiy va ma'muriy usullar asosiy o'rin egallaydi. Mazkur usullardan foydalanish har bir mamlakatda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni talab etadi. Davlat tomonidan belgilangan tartib va me'yorlarning bajarilishi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qarab, majburiy yoki tavsiyaviy bo'lishi mumkin. Chunki mehnat bozorida o'zini o'zi tartibga solishning bozor mexanizmi, hatto, sanoat bilan baholar va daromadlarda ham talab bilan taklifning muvozanatini ta'minlay olmaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimiz olimlari tomonidan mehnat iqtisodiyoti va demografiya sohalarida ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, aholining ish bilan bandligini oshirishning demografik jihatlarini, mehnat bozorini tartibga solish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish kabi masalalarning ilmiy-metodologik asoslari akademik Q.X.Abdurahmanov [3], akademik R.A.Ubaydullayeva [4], professorlar B.X.Umurzaqov [5], N.Q.Zokirova [6] G.Q.Abdurahmonova, Sh.R.Xolmo'minov, A.Kayumov [7], S.Salayev [8], A.Atamirzayev [9], Z.Y.Xudoyberdiyev [10] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli haqidagi nazariya va qarashlarga e'tibor qaratsak, A.Smitning [11] "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida" (1776-y.) asarida bozor usullari orqali iqtisodiyot o'z-o'zini tartibga solishini ta'kidlagan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlarini uchun harakat qilishga majbur qiladi.

J.M.Keyns "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) asarida davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, yalpi talabni rag'batlantirishi va aholi ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotla-

gan. XX asrning 80-yillarida AQShda “Amerikaning yangi rivojlanish yo‘li: iqtisodiy jihatdan yangilanish dasturi” nomli yo‘nalish asosida iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirgan holda (konservativ konsepsiya asosida) rivojlantirish va bozor mexanizmlarining ahamiyati oshirildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metodologiyada analiz, sintez usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tartibga solishning ma‘muriy vositalaridan foydalanish usullari:

- iqtisodiyotning ayrim bo‘g‘inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish;

- narxlar va ish haqini “muzlatib” qo‘yish siyosati;

- ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalari);

- faoliyatini tashkil qilish;

- iqtisodiy sohani tartibga solishni ko‘zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish.


Milliy bozorni yaxlit holda rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida alohida mintaqaning demografik tuzilishi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash maqsadga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari hukumat darajasida belgilangan qoidalar asosida islohotlarni olib borishi va maqbul strategiyani ishlab chiqishi lozim; ikkinchidan, mehnat bozorini barqaror rivojlantirishning ustuvor shart-sharoitlarini ta‘minlagan holda davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash talab etiladi. Bu siyosatning maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar daromadini xalq xo‘jaligi darajasida bo‘lishiga erishishdir.

So‘nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga baho berilar ekan, uning chegarasi tig‘iz darajadan ancha yuqorida bo‘lsa-da, lekin zamona-viy talablar uchun hali yetarli emasligini tan olish lozim. Bunda bozor fondini shakllantirishning asosiy manbayi sifatida davlat tomonidan samarali tartibga solish chora-tadbirlari talab etiladi; oziq-ovqat mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko‘rinish oladi.

Bu esa bir tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligini bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoyalash masalasi oqilona tarzda hal etilishi bilan bog‘liq; oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi davlatlarning o‘z hukmini o‘tkazishga urinishlaridan saqlanish lozim. Ushbu davlatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar ma‘lum ssenariy bo‘yicha harakat qiladi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarqoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish, ya‘ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlanish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.



2-rasm. Tabiiy monopoliya [12]

Tabiiy monopoliyada ishlab chiqarish hajmi Tabiiy monopoliya holati 2-rasmda berilgan. Unga ko‘ra, LAC va LMC – uzoq muddatli davrdagi xarajatlar, D – talab, AR, MR – me‘yoriy daromad va MC – me‘yoriy xarajatlar. Monopolist narxni  $P_1$  o‘rnatib,  $Q_1$  hajmda ishlab chiqaradi. Bu holatda LMC va MR teng bo‘ladi. Monopolist foydasi

esa  $CP_1AB$  to‘rtburchak yuziga teng bo‘ladi. Lekin  $Q_1$  hajmda chiqarilayotgan mahsulotlar jamiyat uchun kam,  $P_1$  narx esa juda baland. Grafikdan ko‘rishimiz mumkinki, jamiyat uchun eng optimal narx va hajm monopolist ishlab chiqarmaydigan  $P_3$  va  $Q_3$ dir. Shuning uchun boshqaruvchi organ narxni  $P_3 = LMC(Q_3) = AR(Q_3)$  da o‘rnatish ke-



rak. Muammo shundaki, bunday narx monopolist ishlab chiqarishini qoplamaydi va o'rtacha xarajatlardan kamroq bo'ladi


Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holatidir. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib ketishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning quyidagi turlari mavjud:

1. Demping narx.
2. Nufuzli narx.

3. Milliy narx.
4. Arzonlashtirilgan narx.
5. Jahon narxi.
6. Yashirin narx.
7. Erkin narx.
8. Standart narx.
9. Kontrakt (ulgurji) narx.
10. Chakana narx.
11. O'zgaruvchan narx.
12. Limit narx.
13. Muvozanat narx.

Bozor narxining asosiy xususiyatlari ularning doimo o'zgarib turish qobiliyatidir. Narxlar hech qachon sababsiz o'zgarmaydi. Yuqori narxlar esa yuqori sifatli, yangi iste'mol qobiliyatiga ega bo'lgan tovarlarga o'rnatiladi. Narx darajasiga tovarning raqobatbardoshligi va bozordagi o'rni bog'liqdir (3-rasm).



3-rasm. Mahsulotlarning inflatsiya darajasiga ta'siri[13]

Narx belgilash maqsadlari: bozor ulushini ko'paytirish, qisqa vaqt ichida eng ko'p foyda olish, yuqori foyda normasini uzoq muddat saqlab qolishdan iborat. Birlamchi narxni aniqlashga vaqt bo'yicha narx darajasini aniq hisoblash ta'sir qiladi. Bu hisoblash bozor segmenti, tovarning yashash davri, talab va taklifning potensial miqdoriga bog'liq bo'ladi. Marketingda tovar siyosati ijtimoiy tovar ishlab chiqarishning barcha bosqichlari, yangi ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv va iste'molchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuritiladi. Narx bajaradigan ba'zi bir vazifalarni ko'rib o'tamiz: avvalo, narxlar ishlab chiqarish va iste'moldagi o'zgarishlardan xabar beradi. Narxlar faqat iste'moldagina emas, balki ishlab chiqarishdagi o'zgarishlardan ham darak beradi.

**Xulosa va takliflar.** Milliy bozorni yaxlit holda rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida alohida mintaqaning demografik tuzilishi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash maqsadga muvofiq mahalliy hokimiyat organlari hukumat darajasida belgilangan qoidalar asosida islohotlarni olib borishi va maqbul strategiyani ishlab chiqishi lozim; ikkinchidan, mehnat bozori ni barqaror rivojlantirishning ustuvor shart-sharoitlarini ta'minlagan holda davlat tomonidan qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Bu siyosatning maqsadi – qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar daromadini xalq xo'jaligi darajasida bo'lishiga erishishdir.

So'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga baho berilar ekan, uning chegarasi tig'iz darajadan ancha yuqorida bo'lsa-da, lekin zamona-viy talablar uchun hali yetarli emasligini tan olish

lozim. Bunda bozor fondini shakllantirishning asosiy manbayi sifatida davlat tomonidan samarali tartibga solish chora-tadbirlari talab etiladi; oziq-ovqat mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko'rinish oladi.

Bu esa bir tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoyalash masalasi oqilona tarz-

da hal etilishi bilan bog'liq; oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi davlatlarning o'z hukmini o'tkazishga urinishlaridan saqlanish lozim. Ushbu davlatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar ma'lum ssenariy bo'yicha harakat qiladi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi.

### Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 544 b.
4. Ubaydullayeva R.A. Трудовые ресурсы и эффективность их использования. – T.: O'zbekiston, 1979.
5. Umurzakov B.X. Ijtimoiy hayot va demografik bosimlar. // Xalq so'zi. 2018-yil 19-dekabr.
6. Skopus bazasi: Impact of demographic processes on the labor market of Uzbekistan. Khodzhaevich A. Khamidovich U. Kalandarovna Z.etal. International Journal of Recent Technology and Engineering (2019).
7. Каюмов А. Современное состояние экономики Узбекистана (макроэкономический анализ). // «Общественное мнение. Права человека». Гуманитарный журнал, 2014, № 3. С. 70.
8. Salayev S., Kalandarova F. Aholi bandligini ta'minlashning demografik tendensiyalari. / "Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2015-yil 3-mart (1-jild). – Urganch, 2015. 146-148-b.
9. Атамйрзаев О. Демографическая ситуация Узбекистана и ее перспективы. // "Общественное мнение. Права человека". Гуманитарный журнал. 2014, № 3. С. 63.
10. Худойбердиев З. Развитие системы подготовки кадров для сфер. Lesson press, 2017.
11. <https://kompy.info/adam-smit-va-david-rikardoning-iqtisodiy-talimotlari.html?page=2>
12. <https://fayllar.org/namangan-muhandislik-qurulish-instituti.html?page=5>
13. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>
14. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/1049>



## O'ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISHDA ICHKI MIGRATSIYANI MAQSADLI TASHKIL ETISH

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss1/a19](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a19)

**Bolqiboyeva Ug'loy Bolqiboy qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va  
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududida tashqi mehnat migratsiyasining yuzaga kelishining asosiy sabablari va tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq muammolar, shuningdek, ichki migratsiyani tartibga solish maqsadida bir qator xulosa va takliflar berilgan. bu holat. Aholini ish bilan ta'minlash, turmush tarzini yaxshilash, qulayliklar yaratishga qaratilgan umumiy jihatlarda bo'yicha boshqa mulohazalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi migratsiya, ichki migratsiya, ishsizlik, mehnat muhojirlari, mehnat migratsiyasi agentligi, bandlik.